



Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi

2019 yilning yanvar-aprel oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -
1119,0 mlrd.so'm

Yirik qurilish
tashkilotlari ulushi -
11,9 %

Kichik korxona va
mikrofirmalar ulushi -
66,7 %

Norasmiy sektor
ulushi- **21,4 %**

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Surxondaryo viloyatida jami **1119,0 mlrd.so'm** qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **114,6 %**ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 133,5 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 11,9 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,4 %ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 66,7 %i yoki 746,5 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,9 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 21,4 % yoki 239,0 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 131,3 %ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari


hajmi - **133,5 mlrd.so'm**
o'sish sur'ati - **124,4 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar

hajmi - **746,5 mlrd.so'm**
o'sish sur'ati - **108,9 %**

Norasmiy sektor

hajmi - **239,0 mlrd.so'm**
o'sish sur'ati - **131,3 %**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlardan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 71,5 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,5 % punktga kamaydi.



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 21,9 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,7 % punktga ko'paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 6,6 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 % punktga kamaydi.



Yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 0,1 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 % punktga ko'paydi.

Bunda kichik korxona va mikrofirmalar ulushi 69,6 % (6,3 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 29,9 %ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida qurilish ishlaring faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 44,9 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,0 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi 55,1 % (6,0 % punktga ko'payish) tashkil etdi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,7 % punktga kamaydi va 26,2 %ni tashkil etdi.

Qolgan 73,8 % kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,7 % punktga ko'paydi.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari

| | <i>Jami</i> | <i>shu jumladan:</i> | | |
|-----------------------------|-------------------|-------------------------------|-------------------|----------------------------|
| | | <i>hududiy yirik qurilish</i> | | |
| | | <i>tashkilotlari</i> | | |
| | <i>mlrd. so'm</i> | <i>o'sish sur'ati, %da</i> | <i>mlrd. so'm</i> | <i>o'sish sur'ati, %da</i> |
| Surxondaryo viloyati | 1119,0 | 114,6 | 133,5 | 124,4 |
| Termiz sh. | 324,1 | 126,1 | 10,2 | 435,5 |
| tumanlar: | | | | |
| Oltinsoy | 22,4 | 107,1 | - | - |
| Angor | 44,0 | 103,2 | - | - |
| Boysun | 74,3 | 111,1 | - | - |
| Denov | 83,9 | 114,8 | - | - |
| Jarqurg'on | 85,5 | 102,7 | 0,7 | - |
| Qiziriq | 36,1 | 112,3 | 2,7 | 399,9 |
| Qumqurg'on | 57,3 | 104,8 | 19,3 | 144,1 |
| Muzrabot | 37,6 | 118,6 | - | - |
| Sariosiyo | 173,4 | 110,9 | 92,1 | 118,4 |
| Termiz | 71,2 | 129,1 | 1,0 | 265,0 |
| Uzun | 25,5 | 102,1 | - | - |
| Sherobod | 57,0 | 108,8 | 7,5 | 58,7 |
| Sho'rchi | 26,7 | 106,3 | - | - |

Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan %da)




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 746,5 mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 66,7%) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,9 %ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 133,5 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 11,9 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,4 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 21,4 % yoki 239,0 mlrd.so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 131,3 %ni tashkil etdi.



2019 yil yanvar-aprel oylarida qurilish ishlaringin mulkchilik shakllari bo`yicha tarkibi (jamiga nisbatan)




Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 19,3 mlrd. so`mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 1,7 %ni tashkil qildi ya`ni 2018 yil yanvar-apreliga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi.



Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 1099,7 mlrd. so`mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 98,3 %ni (2018 yil yanvar-apreliga nisbatan 0,2 % punktga ko`payish) tashkil qildi.


Hududlarda qurilish ishlaringin o'sish suratlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Qurilish ishlaringin hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Sariosiyo tumanida kuzatilgan bo`lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur`ati 110,9 %ni tashkil etdi. Bu tumandagi qurilish ishlaringin asosiy qismi yirik qurilish tashkilotlari hissasiga to`g`ri kelib, tumandagi jami qurilish ishlaringin 53,1 %ini tashkil qiladi.



Yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari, (jamiga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilagan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Termiz shahriga 29,0 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sariosiyoy tumaniga 15,5 %, Denov tumaniga 7,5 % va Jarqurg'on tumaniga 7,56% ga to'g'ri keldi.



**Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni:

**(76) 223-07-15
(71)230-85-81**